

ALISHER NAVOIYNING “SIROJ UL-MUSLIMIN” ASARIDA  
TAHORATNING SUNNATLARI BAYONI

Gulruh Kenjaboy Mirzo qizi  
*ToshDO‘TAU I-kurs doktoranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Siroj ul-muslimin” asarida keltirilgan tahorat sunnatlari yoritiladi. Baytlar sharhlanib, fiqhiy mo‘tabar manbalar bilan solishtiriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *sunnat, basmala, vudu, mazmaza, istinshoq, tahlil.*

Asarda tahoratning farzlari bayonidan so‘ng, Alisher Navoiy sunnatlarni sharhlashga o‘tadi:

Vuzu‘da o‘n iki ish keldi sunnat,  
Birisin tasmiya bil, birni niyat.  
Yu(v)mog‘ uch qatla qo‘l tirsakka tegru,  
Yana bir mazmaza uch qatla ham bu.  
Chu bo‘ldi mazmaza qilmoq mukarrar,  
Bil istinshoh ham mundoq muqarrar.  
Yana tahlil qilmoq lihiyag‘a zam,  
Oyog‘ birla ilik barmog‘lari ham.  
Yana uch qatla a‘zoni yu(v)moq bil,  
Yana boshning tamomin mash qilgil.  
Yana tartib, ya‘ni ulcha tahrir,  
Qilindi berma lek anga tahyir.  
Birov ul jumladin keldi muvolot,  
Yu(v)moq, ya‘ni payopay uzvni bot-bot .

Hazrat Navoiy yetti satr ila tahoratning o‘n ikki sunnatini: basmala aytish, niyat, qo‘lni uch marta yuvish, og‘izni va burunni uch martadan chayish, soqolni va barmoqlarni xilol qilish, a‘zolarni uch martadan yuvish, boshning barchasiga va quloqqa mas‘h tortish, tartib va uzluksizlikni shu tarzda aniq va lo‘nda ifoda etgan. “Hidoya”da esa tahoratning sunnatlari batafsilroq kelgan: “Quduriy rahmatullohi alayh aytadi: Tahoratning sunnatlari: tahorat olmoqchi bo‘lgan kishining uyqudan uyg‘onganida qo‘llarini (tahorat suvi turgan) idishga solishdan avval yuvishidir. Chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Birortangiz uyqudan uyg‘onsa, to uch marta yuvmaguncha qo‘lini aslo suv idishga tiqmasin, chunki u, qo‘li tunda qayerda bo‘lganini bilmaydi», deganlar. Bundan tashqari, qo‘l tozalash vositasi bo‘lib,



(tozalashni) uni tozalashdan boshlash sunnat qilingan. Bu yuvish (qo‘lning) bo‘g‘inigacha amalga oshiriladi, chunki bu miqdor (boshqa a‘zolari) poklashga yetarlidir.

Quduriy rahmatullohi alayh aytadi: Tahoratni Allohning nomini aytib boshlash (sunnat). Chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Bismillahni aytmaganning tahorati tahorat emas”, – deganlar. Bundan murod (“bismillah” aytilmaganda tahorat) fazilatining ketishidir. Quduriy rahmatullohi alayh kitoblarida bismillohni aytish sunnat degan bo‘lsalar ham, eng to‘g‘risi, uni aytish mustahab. “Bismillah”ni istinjodan oldin ham, keyin ham aytiladi va bu so‘z to‘g‘ridir.

Quduriy rahmatullohi alayh aytadi: (Tahoratda) misvok ishlatish (sunnat). Chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam tahorat vaqtida doim misvok ishlatganlar. Misvok bo‘lmagan paytda (tishni) barmoqlar bilan ishqalab yuviladi, chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday qilganlar. Eng to‘g‘risi, misvok ishlatish mustahab amaldir .

Quduriy rahmatullohi alayh aytadi: “Mazmaza va istinshoq (sunnat amal)”. Chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu ikki amalni (tahorat vaqtida) doimo qilganlar. Mazmaza qilish quyidagicha: har safar yangi suv olinib uch marta og‘iz chayiladi. So‘ngra xuddi shu shaklda burun chayiladi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning tahoratlari haqida shunday rivoyat kelgan. Ikki quloqqa mas‘h tortish (sunnat). Bizning mazhabga ko‘ra, amalni boshga mas‘h tortish uchun olingan suv bilan bajarish sunnatdir. Shofe‘iy rahmatullohi alayh Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning “Ikki quloq boshning bir bo‘lagidir” degan so‘zlariga asosan, bunga xilof qilganlar. (Biz aytamizki) mazkur hadisdan murod xilqat (yaratilish)ni emas, (balki boshning) hukmini bayon qilingan.

Quduriy rahmatullohi alayh aytadi: Soqolga xilol qilish (ham sunnat). Chunki “Jabroil alayhissalom Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga shunday qilishni buyurganlar”. Bir rivoyatda, soqolni xilol qilish Abu Yusuf rahmatullohi alayhga ko‘ra sunnat, Abu Hanifa va Muhammad rahmatullohi alayhlarga ko‘ra “joiz” deyilgan. Chunki sunnat (amalining vazifasi) farz (amali)ni o‘z o‘rnida to‘ldirishdan iborat. Soqolning ichi esa tahoratda (yuvish) farz bo‘lgan joy emas.

Quduriy rahmatullohi alayh aytadi: Barmoqlarga xilol qilish (sunnat). Chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Barmoqlaringiz orasini xilol qiling, toki jahannam olovi ular orasini xilol qilmasin”, – deganlar. Shuningdek, barmoqlarga xilol qilish (yuvish) farzini o‘z o‘rnida to‘ldiradi (ya‘ni, barmoqlar orasidagi suv tegmay qolib ketgan joylariga suvni tekkizadi).



Quduriy rahmatullohi alayh aytadi: “(A’zolari) uch marta yuvish (sunnat)”. Chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam a’zolarini bir martadan yuvib tahorat qilib: «Bu shunday tahoratki, Alloh taolo busiz namozni qabul qilmaydi» dedilar. So’ngra a’zolarini ikki martadan yuvib tahorat qildilar va: “Bu Alloh taolo savobini ikki marta ko’paytirib beradigan kishining tahoratidir”, – dedilar. So’ngra uch martadan yuvib: «Bu mening va mendan ilgari o’tgan Nabiylarning tahoratidir. Kimki mana bundan ko’paytirib yuborsa yoki kamaytirsas, chegaradan chiqibdi va o’ziga zulm qilibdi», dedilar. Hadisdagi va’iyd uch marta yuvishni sunnat emas, deb e’tiqod qiladigan kishilar uchundir.

Quduriy rahmatullohi alayh aytadi: Tahorat olmoqchi bo’lgan kishi poklanishni niyat qilishi mustahab sanaladi. Bizga ko’ra, tahorat olish uchun niyat qilish sunnat. Shofe’iy rahmatullohi alayhga ko’ra, farz. Chunki u kishiga ko’ra, tahorat ibodat bo’lib, xuddi tayammumdagidek, niyatsiz durust bo’lmaydi. Bizning dalil shuki, tahorat niyat qilinsagina qurbat bo’ladi. Lekin (namoz uchun niyat qilinmagan) tahorat namoz uchun kalit bo’laveradi, chunki poklovchi vositani ishlatish bilan poklik yuzaga keladi. Ammo tayammumning (hukmi) bunday emas, chunki tuproq poklovchi narsa emas, faqat namoz o’qishni iroda qilinganda poklovchi bo’ladi. Yoki tayammum so’zining o’zi qasd (qilmoq) ma’nosini anglatadi.

Tahorat oluvchi boshiga mas’h tortganida, boshning hammasini qamrab oladi va bu (boshining hammasini qamrab olishi) sunnat amal. Shofe’iy rahmatullohi alayh: «Yuviladigan a’zolari e’tiborga olib, uch marta boshqa-boshqa suv olib boshga mas’h tortish sunnat», degan. Bizning dalil: Anas ibn Molik roziyallohu anhu a’zolarini uch martadan yuvib tahorat oldilar, boshlariga bir marta mas’h tortib: «Bu Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning tahoratlarini», dedilar. Uch bor mas’h tortish to’g’risida rivoyat qilingan hadis bir marta suv olib uch bor mas’h tortish ma’nosiga yo’yilgan. Bir suv bilan uch bor mas’h tortish Hasan ibn Ziyod rahmatullohi alayhning Abu Hanifa rahmatullohi alayhdan rivoyat qilgan so’ziga ko’ra shariatda joriy qilingan. Aslida farz qilingan narsa mas’h tortishdir. Takroran bajarish bilan mas’h yuvishga aylanib ketib, sunnat bo’lmay qoladi. Natijada u mahsiga takror-takror mas’h tortish kabi bo’lib qoladi. Yuvish esa uning teskarisi, chunki uni qayta-qayta bajarishning zarari yo’q.

Quduriy rahmatullohi alayh aytadi: Tahoratni tartib bilan qiladi, shunda Alloh taolo Qur’onda zikr etgan tartib asosida, o’ng tomondan yuvishni boshlaydi. Tahorat qilishda tartibga rioya etish bizga ko’ra, sunnat. Shofe’iy rahmatullohi alayh: «Tartib farz», degan. Chunki Alloh taoloning



«Yuzlaringizni yuvinglar», degan oyatida kelgan oyatdagi (arabcha) «fa» harfi ketma-ketlikni ifodalaydi. Bizga ko‘ra, oyatda (arabcha) «vov» harfi zikr qilingan. «Vov» harfi lug‘at olim- larining ijmosi bilan hamma ishni bir joyga jamlash uchun keladi. Demak, bu harf — yuviladigan a‘zolari ketma-ket yuvishni taqozo qiladi. O‘ng tomondan boshlash fazilat, chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Alloh taolo har bir ishda o‘ng tomondan boshlashni yoqtiradi, hatto kovush kiyish va soch tarashda ham», deganlar”. Guvohi bo‘lganimizdek, “Siroj ul-muslimin” asarini yozishda Navoiy hazratlari mo‘tabar fiqhiy manbalarga suyanganlari, xossatan, “Hidoya”ning masalalarini chuqur o‘rganganlari namoyon bo‘ladi. “Hidoya”dan tahoratning sunnatlari borasidagi sunnatdan dalillar, mazhablar o‘rtasidagi farqlar, olimlarning turli fikrlari ham joy olgani uchun batafsil bayon qilingan. Navoiy esa eng zaruriy ketma-ketlikni sanash bilan kifoyalangan.

Tahoratdan so‘ng, Navoiy g‘uslning farzlari va sunnatlari bayoniga o‘tadi:

Nimakim, g‘usl qilmaqqa erur farz,

Agar sen istimo etsang, qilay arz.

Og‘izg‘a mazmaza qilmoq bilgil,

Burung‘a dag‘i istinshoq qilg‘il.

Erur bu ikki bo‘lg‘ach bebahona,

Bari a‘zoga suv qilmoq ravona.

Yana g‘usl ichra sunnatlar dag‘i bor,

Taomil aylagil to aylay izhor .

Navoiy shunday deydi: Agar sen eshitadigan bo‘lsang, g‘uslning farzlarini men senga aytib beraman: og‘izni mazmaza qilish, burunni istinshoq qilish, butun a‘zolari yuvish. Bundan keyin sunnatlari ham bor bo‘lib, ularni ham senga izhor qilaman:

Ilik avval yu(v)mog‘lig‘ ayla mafhum,

Pas, andin so‘ng yu(v)moqdur uzvi ma‘lum.

Badanda gar najosat bo‘lsa zohir,

Ani qilmoqdurur su(v) birla tohir.

Yana sunnatdurur qilmoq vuzu’ ham,

Yu(v)bon a‘zo quyub uch qatla su(v) ham.

Navoiy g‘usldan so‘z yuritishda davom etib: “Eng avvalida pastdagi ma‘lum a‘zoni yuvasan, so‘ngra, agar badanda zohir najosat bo‘ladigan bo‘lsa, uni pok suv bilan ketkazasan. G‘usldan avval tahorat qilish ham sunnatdir, shuningdek, uch martadan suv quyish ham”.

Endi esa “Hidoya”dagi g‘usl bobi bilan tanishamiz: “G‘uslning farzi: og‘iz, burun va badanning qolgan qismini yuvish. Shofe‘iy rahmatullohi alayhga



ko‘ra, g‘uslda og‘iz va burunni yuvish sunnat. Chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “O‘nta narsa fitratdan” (ya‘ni, payg‘ambarlarning) sunnatidandir deb, ularning orasida og‘iz va burunni yuvishni ham zikr qilganlar”. Shuning uchun ular tahoratda ham sunnatdir. Bizning dalil Alloh taoloning: “Agar junub bo‘lsalaringiz, yaxshilab poklaningizlar...”, – degan so‘zidir. Bu oyat butun badanni poklashga buyruq bo‘lib, suv yetkazish imkonsiz bo‘lgan a‘zolarigina oyat hukmi ostiga kirmaydi. Tahorat esa buning teskarisi, unda yuzni yuvish farz. Yuzlanganda og‘iz va burun ichi ko‘rinmaydi. Shofe‘iy rahmatullohi alayh rivoyat qilgan hadisdan murod, betahoratlik holatidir. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “U ikkisi junublikda farz, tahoratda esa sunnatdir”, – degan so‘zlari bunga dalildir.

Quduriy rahmatullohi alayh aytadi: G‘uslning sunnati: g‘usl qiluvchining avvalo qo‘li va avratini yuvishdan boshlashidir. Agar badanida najosat bo‘lsa, najosatni ketkazadi. So‘ng namozga tahorat qilgandek tahorat qiladi, faqat oyog‘ini yuvmay turadi. So‘ng boshi va butun badaniga uch marta suv quyadi. Undan keyin o‘sha joydan chetga chiqib, oyog‘ini yuvadi. Maymuna roziyallohu anho Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning mana shunday g‘usl qilganliklarini aytib berganlar. G‘usl qiluvchining oyoqlarini yuvishni kechiktirishi (g‘usl qilgan vaqtda) ularning ishlatilgan suv ichida turgani sababidandir. Shu bois oyoqlarni erta yuvishning foydasi yo‘qdir. Agar biror taxta ustida turib g‘usl qilsa, oyoqlarni yuvishni kechiktirmaydi. Suv quyilganda najosat badanning boshqa joylariga tarqalib ketmasligi uchun g‘usl qiluvchi, avvalo, badandagi najosatni ketkazishdan boshlaydi .

Ayol kishi g‘usl qilayotganida, agar suv sochning tagiga yetadigan bo‘lsa, sochning o‘rimlarini yechishi shart emas. Chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Ummu Salama roziyallohu anhoga: “Suv sochningning tagiga yetishi yetarli emasmi?!” deganlar. Ayol kokillarini ho‘llashi ham shart emas, chunki bu ishda mashaqqat bor. Bu so‘z to‘g‘ridir. Soqol esa buning aksi bo‘lib, uning oralariga suv yetkazishda qiyinchilik bo‘lmaydi”.

“Siroj ul-muslimin”da g‘uslning sunnatlari bayoni “Hidoya” bilan bir xil. Ammo sunnatlar bobi ham qisqa bayon qilinganligi bois ayrim ma‘lumotlar berilmagan. Masalan, tahoratning kayfiyati, yoki ayollar uchun muhim masalalardan hisoblangan kokillar masalasi ham tushuntirilmagan. “Hidoya”da esa hadislar, dalillar bilan barcha ma‘lumotlar izohlangan.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy / “Siroj ul-muslimin”. –T:Fan-2000
2. Imom Buxoriy / “Oltin silsila”, 1-juz. –T:Hilol-nashr-2021
3. Ubaydulloh ibn Mas'ud / “Muxtasarul viqoya”. –T:Movarounnahr-2010
4. Shayx Abdulaziz Mansur / “Qur'oni Karim ma'nolari tarjimai va tafsiri”. –T:TIU-2004
5. “Hidoya” asari 1-juz. Burhoniddin Marg'inoniy – Toshkent: 2022

